



GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT MUAMMOLARI.

Mahmudova E'zoza Jasurovna, O'ralova Aziza Faridovna

ezozamaxmudova1007@gmail.com

aurolova955@gmail.com

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali 1-kurs talabalari

Mamatqulova Nilufar Xusanovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası v.b, dotsent (PhD)

nilufarmamatqulova53@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda dunyo hamjamiyatlari o'rtasida Global muammo sifatida qaralayotgan asosiy muammolar haqida talqin etildi. XXI asrda asosiy global muammolar ekologiya, oziq-ovqatning yetishmovchiligi, urush va tinchlik, terrorizm va ekstrorizm, energitik muammolar, demografik ko'rsatkichning oshib ketishi yokida ayrim mamlakatlarda juda ham sustlashib borayotgani, iqtisodiy o'sish, sog'liqni saqlash muammolari sayyoramizning asosiy muammolaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ekologiya, iqtisodiy o'sish, sog'liqni saqlash, terrorizm, global, demografik.

Kirish: XXI asr insoniyat tarixida axborot almashinuvi va texnologik taraqqiyotning cho'qqisi sifatida qaralsa-da, u o'zi bilan birga qator global muammolarni ham olib keldi. Global jarayonlar barcha davlatlarni yagona iqtisodiy, siyosiy va madaniy maydonga birlashtirmoqda. Biroq, bu integratsiya sharoitida barqaror taraqqiyotga erishish murakkablashib bormoqda. Bugungi kunda asosiy muammo bu ekologiya muammosidir ekologiya muammosi 1945-yilda dolzarbligi ta'kidlangan bo'lsa bu muammoga oz bo'lsada yechimlar ko'rildi lekin to'liq emas. Bugungi kunga mamlakatimizning Toshkent shahri ekologiya bo'yicha ifloslanish darajasi ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab esa sanoat va yangi binolar, fermalar, avtomobillar soni haddan tashqari ortmoqda.

Asosiy qism: Aholi sonining keskin ortishi sog'liqni saqlash sohasida o'z hissasini ko'rsatadi. Yangi turdagi virusli infeksiyalar (masalan, COVID-19) global dunyo qanchalik zaif ekanligini ko'rsatib berdi. Tibbiyotning barqaror rivojlanishi bu nafaqat davolash, balki profilaktikani kuchaytirish lozim. Mamlakatimizda ochlikdan nobut bo'layotgan aholi deyarli yo'qligi ta'kidlangan. Lekin bu ko'rsatkich dunyo miqyosida achinarli darajada. Osiyo va



Afrika xalqlari o'rtasida bir kecha-kunduzda 1200 nafarga yaqin kishi halok bo'layotgani buning yaqqol misolidir. Butun jahon miqyosida ochlikdan halok bo'layotganlar soni 1979 yillarda bu ko'rsatkich 460 millionga yetgan bo'lsa, 2000-yilda bu statistika 650 millionga yetganligi aniqlangan. Urush va Tinchlik dunyo aholisining ko'p qismini olib ketgan va eng og'ir vaziyatdir. Birinchi jahon urushi vaqtida dunyo aholisining 10 million nafar inson yorug' olamni tark etdi. Ikkinchi jahon urushida esa bu ko'rsatkich 6 barobarga yetdi ya'ni 60 million kishi vafot etdi. Buning natijasida demografik ko'rsatkich keskin pasayib ketdi. Energetik muammolar ham juda ham ko'paymoqda tabiiy resurslarning keskin kamayishi. Ma'lumotlarga qaraganda energetik mahsulotlarni dunyoning top 10 talik mamlakatlariga kirgan davlat energetikaning 70% dan foydalanayotgani aniqlandi. Lekin ularning aholisi dunyo insonlarining 7% ni tashkil qilishi aniqlangan. Bu esa juda ham energetikaning notekis taqsimlanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, global jarayonlar insoniyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochgan bo'lsa-da, u o'zi bilan birga kechiktirib bo'lmaydigan jiddiy muammolarni ham olib keldi. Bugungi kunda barqaror taraqqiyotga erishish shunchaki siyosiy reja emas, balki kelajak avlodlar oldidagi insoniylik burchimizdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Ergashev I. Farfiyev B. "Globalistika"
2. Karimov I. "Globalizatsiya va ijtimoiy jarayonlar"
3. Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti hisobotlari "Global sog'liqni saqlash muammolari va ularning yechimlari"